

FARHOD ISHQDA KOMILLIK RAMZI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8434017>

Zayniddinova Sevinch Jaloladdin qizi

Nizomiy nomidagi TDPU 2-bosqich talabasi

e-mail: szayniddinova199@gmail.com

Telefon: +99895 0119904

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk mutafakkir, soʻz mulkining sultoni hazrat Alisher Navoiyning shoh asari hisoblangan “Xamsa” asarining uchinchi dostoni “Farhod va Shirin ” haqida soʻz boradi.komil inson tushunchasiga alohida toʻxtalib, Farhod obrazi orqali shoir anglatmoqchi boʻlgan tasavvufiy maʼno izohlangan. Xamsachilikda yangilik boʻlgan Farhod obrazining tarifi keltirilgan.

Kalit soʻz

xamsachilik, komil inson, tasavvuf, xamsa, shoh asar, ilohiyot, Farhod, Shirin, atama, tushuncha, ruhiyat.

Annotation

This article talks about "Farhod and Shirin", the third epic of "Khamasa", considered the masterpiece of Alisher Navoi, a great thinker, the sultan of words. The mystical meaning is explained. The price of the image of Farhad, which is new in khamsalik, is presented.

Key Words

Khamsalik, perfect person, Sufism, Khamasa, masterpiece, theology, Farhad, Shirin, term, concept, spirituality.

Ulugʻ mutafakkir, turkiy til asoschisi, soʻz mulkining sultoni Alisher Navoiyning eng mashxur shoh asari bu- “ Xamsa ” asaridir. Ushbu asar orqali muallif xamsachilik anʼanalarini davom ettirgan va buyuk ustozlarga munosib shogirt sifatida maydonga chiqqan. Alisher Navoiy shu paytgacha yozilgan xamsalarda boʻlgan Xusrav obrazining oʻrniga pokiza ishq va komil inson timsoli boʻlgan Farhod obrazini olib kirish orqali, juda katta oʻzgarish va yangilik qilgan.

Shirin va Farhod timsollari fors-tojik adabiyotida X-XI asrlardan boshlab Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin”, Xusrav Dehlaviyning “Shirin va Xusrav”, oʻzbek shoiri Qutbning “Xusrav va Shirin” dostonlarida eng fidoyi oshiq va maʼshuqalar sifatida tasvirlangan. Alisher Navoiy Sharqda bu anʼnaviy ishqiy qissani qayta ishlab, uni yangidan

shakllantirgan, Farhod va Shirinni dostonning bosh qahramonlari sifatida tasvirlagan va unga “Farhod va Shirin” deb nom qo‘ygan.

Navoiy yigitlik davrida “Topmadim” radifi bilan yozgan g‘azallarining birida yoshligida o‘zi qayta-qayta o‘qib, diliga jo qilgan dostonlar to‘g‘risida so‘z yuritadi, unda shunday bir bayt bor:

“Ko‘p o‘kudum Vomiq-u Farhod-u Majnun qissasin,
O‘z ishimdin bul’ ajabroq dostone topmadim”

Demak, Navoiy yoshligidan boshlab mashhur oshiq va ma‘shuqalar, shu jumladan, Farhod, Shirin haqidagi qissalarni ko‘p va qayta-qayta o‘qigan. Shu bilan birga, bu dostonlar vaqt o‘tishi bilan uning shaxsiyati, shaxsiy his tuyg‘ulari ila birlashib ketgan va ko‘nglida Farhod va Shirin haqida butunlay yangi bir doston g‘oyasi shakllana boshlagan. Bu ijodiy reja esa 1483-1484-yillarda amalga oshirilgan.

Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni u yaratgan “Xamsa” ning 2-dostoni bo‘lib, unda Farhod oddiy tosh yo‘nar oshiq emas, balki xoqonning o‘g‘li, aniqrog‘i, Xo‘tan mamlakati podshosining qarilikda ko‘rgan yakka-yu yagona farzandi bo‘lib, yoshligidan fanning barcha sohalariga qiziqqan, harbiy bilimlarni, ayniqsa, toshyo‘narlik, kasbini egallashga uringan. U Shirinni otasining xazinasidagi sehrli oynada ko‘rib, darhol sevib qoladi. Unga erishish uchun turli mashaqqatlarni boshidan kechiradi. U Arman elida Shirin uchun qazilayotgan ariqni bitkazish ishlarida o‘zining nimalarga qodir ekanini ko‘rsatadi. Ammo bosqinchi Eron hukmdori Xusrav bilan kurashda xiyla bilan qo‘lga olinib, qahramonlarcha xalok bo‘ladi. Uning sevgilisi Shirin esa uning jasadi ustida jon beradi. Asarning qisqacha mazmuni shundan iborat.

Alisher Navoiy komil inson tushunchasini ilk marotaba aynan “Farhod va Shirin” dostonida Farhod obraziga nisbatan ishlatgan. Ulug‘ shoirning yozishicha Farhod ham haqiqiy ishq, ham har taraflama yetuk, ichki dunyosi, ruhiyati pok komil inson timsoli hisoblanadi.

Navoiy tili bilan aytganda: Tasavvuf ahli sig‘ingan ideal - Komil inson aslida xalq ideali, adabiyot ideali edi. Bu hayotbaxsh ta‘limotning peshvolari yozib qoldirgan asarlar, so‘fiyona ruhdagi she‘r-u dostonlarni mutolaa qilar ekanmiz, yorug‘likning zulmga, xayrning sharrga, fayzu kamolning nuqsu noqislik, kaltafahmlik va nodonlikka qarshi omonsiz jangiga guvoh bo‘lamiz. Voqean, tasavvuf shayxlari, zulm va qorong‘ulik lashkariga qarshi ma‘rifatni qurol qilib olib jangga kirgan pahlavonlarga o‘xshab ketadilar (Tustariy: “Ma‘rifat jahl-nodonlikka qarshi jangdir”). Ular Ka‘ba deb ko‘ngilni tan oladilar, ko‘ngil ra‘yiga yuradigan, dunyoni ko‘ngil oraqli biladigan va ko‘ngilga sig‘inadigan odam Allohning sevgani

deb chiqdilar. Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asaridan: “Ismoil Dabbos dedikim, haj niyati qilib, borurda Sherozga yetishdim. Bir masjidga kirdim. Shayx Mo'minni ko'rdimki. o'lturib xirqasini yamaydur erdi, salom qildim va o'lturdim. Mendan so'rdikim, ne niyating bor? Dedim: haj niyatim bor. Dedi: onang bormi? Dedim: bor. Dedi: yonib onang mulozamatiga bor... Men ellik haj qilibmen bosh yalang, oyoq yalang va zodu hamrohsiz. Barchasin senga berdim, sen onang ko'ngli shodligin menga ber!” Bu odamlar jamiyatning tirik vijdoni edilar. Kishilar ularga qarab hushyor tortar, dunyo bexudligidan o'ziga kelib, o'z qalbiga, qilayotgan ishlariga razm solardilar, tavba-tazarru' qilardilar. Ularning af olu a'moli insonlar diliga quvvat, ko'ziga nur bag'ishlagan.

Mohiyatan olganda, komil inson haqidagi tushunchalarning muxtasar mag'zi shundan iborat. Ammo bu haqda ulug' allomalarning qiymat va ahamiyatini yo'qotmagan qarashlari, fikrlari bor. Komil inson tasavvuf adabiyotida ko'p marta tilga olinib, munozaralarga sabab bo'lgan va bu haqida maxsus kitoblar yozilgan. Shulardan Sayyid Abdulkarim Geloniy va Aziziddin Nasafiy (XIII asr)larning “Insoni komil” nomli risolalarini maxsus tilga olib o'tish mumkin. Aslida esa komil inson tushunchasi birinchi marta Shayxi Kabir nomi bilan mashhur bo'lgan Muhyiddin Ibn Arabiy (1165-1240) tomonidan muomalaga kiritilganini qayd etmoq joiz. Ibn Arabiy nazdida komil inson - bu aqli avval yoki nafi avval, aqli kull tushunchalari bilan ma'nodoshdir. Chunki Tangri taolo ilohiy nurdan ilk marta Aqli avvalni yaratdi va uning suratu shakli Komil inson qiyofasida zuhur etdi.

Xulosa o'rnida aytishimiz joizki, buyuk mutaffakir asrlarni bosib o'tib biz bilan yashamoqda va mangu bo'lgan dahldorligini namoyon etib kelmoqda. Hurlik va ozodlikning, vatan tuprog'ining naqadar buyuk ekanligini chin yurakdan his qilib, shu yurt baxti saodati uchun xizmat qilishni chinakam baxt deb biladi. Ana shunday yuksak ma'naviyatli avlodlarni shakllantirishda esa ulug' ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy meros juda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurashid Abdug'afurov. Buyuk beshlik saboqlari. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995. - B. 185.
2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma'naviyat, 2000. - B. 416.
3. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin (To'liq nasriy tabdili). - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. - B. 255.

4. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2020. - B. 250.
5. Hamid Olimjon. Mukammal asarlar to'plami. - Toshkent: Fan, 1982. - B. 391.
6. Oybek. Asarlar. 13-tom -Toshkent: FAN nashriyoti, 1979. - B. 130.
7. Oybek. Asarlar. 9-tom -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974. - B. 126.